

OSHIQ ERKIN SHE'RIYATI TILIDAGI FRAZEOLOGIZMLARNING LUG'AVIY  
TAVSIFIGA CHIZGILAR

**Dildorxon Sultanova Azamat qizi**

*Urganch davlat universiteti Magistratira bo'limi*

*Lingvistika: o'zbek tili yo'nalishi magistranti*

O'zbek tilshunosligida frazeologizmlar haqida gap ketar ekan, avvalo, frazeologiya terminiga qisqacha izoh berib o'tishni lozim ko'ramiz. «Frazeologiya» termini grek tilidan olingan bo'lib, phrasis-ibora+logos-ta'limot, ya'ni «Iboralar to'g'risidagi ta'limot»<sup>86</sup> degan ma'noni beradi. Leksikologiya, jumladan, frazeologiyaga doir mavjud darslik, o'quv qo'llanmalar va ayrim ilmiy manbalarda esa frazeologiya terminiga quyidagicha izoh beriladi: «Frazeologiya yunoncha so'z bo'lib, phrasis – fraza – ibora, ifoda; logos – bilim, ilm, fan, ya'ni iboralar haqidagi fan demakdir»<sup>87</sup>. Umuman, frazeologizmlarning o'rganish tarixiga nazar tashlaganda, shu narsa ma'lum bo'ladiki, ular dastlab adabiyotshunoslikda paydo bo'lgan ekan. Bu tabiiy hol. Qolaversa, mazkur tushunchalar ilk bor yozuvchi va shoirlarning badiiy asarlarida, shuningdek, xalq og'zaki ijodida o'z ifodasini topgan. Bundan tashqari, frazeologizmlarni lingvistik nuqtai nazardan o'rganish zarurati ularni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish jarayonida paydo bo'lgan. Bu xususida ilmiy tadqiqotlar olib borgan rus tilshunosi YA. D. Pinxasov shunday yozadi: «Ma'lum bir asarni bir tildan ikkinchi bir tilga tarjima qilish jarayoni juda qiyin kechgan. Shundan keyingina esa o'sha tillardagi mavjud bo'lgan frazeologik iboralar o'rganila boshlangan»<sup>88</sup>. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, frazeologizmlar dastlab adabiyotshunoslikda adabiyotshunoslar tomonidan o'rganilganligi shubhasizdir. Keyinchalik esa, turli xildagi frazeologik lug'atlarda oddiy so'z ma'nolari izohlanganidek, tildagi frazeologizmlar ham atroflicha to'planib, ularni ma'nolari izohlanishiga kirishilgan. Ana shundan so'ng frazeologizmlarning ma'nolari, ularning grammatik qurilishlari va boshqalar tilshunoslik fanida ham bosqichma-bosqich monografik planda o'rganila boshlandi.

Bilamizki, tilimizning frazeologik fondi xalq madaniyati va mentalitetining qimmatli ma'lumotlar manbasi sanaladi. «Frazeologizmlarning semantikasida xalq madaniyati rivojining uzoq jarayoni aks etadi. Har bir tilning frazeologizmlarida xalq hayotiga mansub ijtimoiy- tarixiy voqea-hodisalar, axloqiy va ma'naviy- madaniy me'yorlar, diniy tasavvurlar, milliy an'ana va urf –odatlar, madaniy stereotiplar va arxetiplar o'z aksini topgan bo'lib, ular avloddan avlodga uzatiladi»<sup>89</sup>

Tilshunos olim, professor Nizomiddin Mahmudov aytganidek, «Iboralar tilning boyligi va ta'sirchanlik quvvatini, ayni paytda qadimiyligini hamda milliy- madaniy

<sup>86</sup> Краткий словарь иностранных слов. – М. 1967. - 396

<sup>87</sup> Бу ҳақда қаранг: Р. Худойбергано, Ҳ Абдурахмонова. Хоразм шеваларидаги фразеологизмларнинг семантик хусусиятлари// Филологик тадқиқотлар. – Тошкент, 2008, 43-44-бетлар.

<sup>88</sup> Я. Д. Пинхасов. О изучении фразеологизмов// Вопросы фразеологии. – М. 1972, С. – 41,

<sup>89</sup> Shoira Usmonova . Lingvokulturalogiya darslik.Toshkent 2019.-B--92

o`ziga xosligini baralla namoyon etadigan xolis va tiniq ko`zgudir Iboralar zaxirasining salmog`i va hajmi, tabiiyki, barcha tillarda bir xil darajada emas”.<sup>90</sup>

Taniqli shoir Oshiq Erkin o`zining ijodida Xorazm shevasiga xos shunday frazeologizmlarni qo`llaganki, ularning aksariyati o`zbek tili va uning boshqa shevalarida deyarli qo`llanilmaydi. Biz fikrimizni isbotlash maqsadida uning ijodidan namunalar keltirib, lisoniy nuqtai nazardan tahlil qilishga harakat qilamiz. U o`zining she`rlaridan birida shunday yozadi

**Soyang tushmasa birovga**, bormasang yo hol so`rovga,  
Aylansang el uchun yovga- kelding nima, ketding nima.

[Muhabbatdan to`yganim yo`q.11-bet] Quyidagi misralarda “Soyang tushmasa birovga” iborasi Xorazm shevasiga xos bo`lib, uning o`zbek tilida ekvivalenti yo`q. Xorazmcha birovga nafi, foydasi tegmaslik ma`nosini anglatadi. O`zbek xalqi mehnatkash va jonkuyar xalq. Quyidagi misralar buni yaqqol isbotlaydi.

Boz mashhur aylab xoriya, kuylay sochimni toricha,

**Ter to`kay** umrim boricha, buturgil ish menga, yurtim,

Kamxizmatman senga, yurtim, [Muhabbatdan to`yganim yo`q.13-bet]

Ushbu she`rda “ter to`kmoq” iborasi qo`llanilgan bo`lib, bu ibora Sh.Rahmatullayevning “o`zbek tilining izohli frazeologik lug`at”da 2 xil izohlangan. 1- ter to`kmoq; 2- Mashaqqat bilan qattiq (ishlamoq). Yuqoridagi misrada ham shoirning Vatan uchun har qanday mashaqqatli ishga tayyor er yurt farzandi ekanidan dalolat beradi.

Oshiq Erkin ijodida Navoiyga oshiqlik va unga hamohanglik yaqqol sezilib turadi.

NAVOIY:

Meni men istar o`z suhbatiga arjuand etmas,

Meni istar kishining suhbatin ko`nglum pisand etmas.

OSHIQ ERKIN:

Sarson etib ishq bog`ini, ko`p tortdim hijron dog`ini,

Ohim-la vayron ayladim ko`nglimning hasrat tog`ini.

**Bo`yimdek bo`y topdim, ammo ko`ngildek ko`ngil topmadim.** [Muhabbatdan to`yganim yo`q.44-bet]

Bu ikkala mashhur misralar ham xalqimiz qalbidan chuqur joy olgan. Kundalik hayotimizda ham tez-tez takrorlanib turadi.

Shuningdek, shoir ijodida “**Diydoringga to`ymoq**”, “**Ko`ngil qo`ymoq**”, “**Dili vayron bo`lmoq**”, “**Hushim uchib**”, “**Og`zidan bol tomchilar**”, “**Haddan oshirmoq**” iboralari ham go`zal she`riy satrlarga singib ketgan. Xorazm shevasida ko`p qo`llaniluvchi mashhur iboralardan yana biri quyidagi misralarda aks etgan.

**Ko`rganlar besh ketar sendek chiroyga**,

Boshqachasan bugun, jonim, boshqacha. [Muhabbatdan to`yganim yo`q.32-bet]

Yuqoridagi misrada “Besh ketmoq” iborasi qo`llangan bo`lib, o`zbek tilida “tan bermoq” ma`nosini anglatadi. Xorazm xalqi uchun qulay variantdir.

<sup>90</sup> N.Mahmudov-“Iboralar va ularning lug`aviy tavsifiga chizgilar” maqola “O`zbek tili va adabiyoti” jurnali-3/2022.3-bet

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Oshiq Erkin ijodidagi frazeologizmlarni semantik, morfologik va sintaktik jihatdan tahlil qilinsa aynchayin boy manbaga ega bo`lishimiz mumkin.